

Eng Zarur Dorilar To'plami Yoki Aptechka (Doriquti)

23

BOB



Har bir qishloqda va qishloqdagi xonadonlarda kutilmagan hollarda yordam ko'rsatish uchun mo'ljallangan eng zarur dorilar to'plami (aptechka) tayyor turishi kerak:

- Xonadonda birinchi yordam ko'rsatishda ishlatiladigan dorilar, oddiy ukollar va oddiy xastaliklar uchun ishlatiladigan narsalari bor UY APTECHKASI bo'lishi kerak.
- Har bir mahallada esa kundalik muammolarni hal qilishda ham, shuningdek jiddiy kasalliklar paydo bo'lib qolganida yoki bir tasodif ro'y berganida ishlatishga ham asqotadigan narsalar jamlangan aptechka (MAHALLA APTECHKASI, 398-bet) bo'lishi kerak. Biror odam, u xoh tibbiyot xodimi yoki o'qituvchi bo'lsin, unga javobgar bo'lishi kerak. Ilo-ji bo'lsa, butun mahalla ahli aptechkani tashkil qilish va dorilarga pul to'lashda ishtirok etishi kerak. Ko'proq bera oladiganlar ko'proq pul qo'shishi kerak. Lekin barcha odamlar, **aptechkaning** pul qo'sha oladigan va qo'sha olmaydiganlar uchun ham umumiy ekanligini tushunishi kerak. **Aptechka hamma uchun bo'lishi kerak.**

Hammabop Tibbiyot Qo'llanmasi 2013

Keyingi betlarda aptechkada bo'lishi mumkin bo'lgan dorilar haqida bilib olishingiz mumkin. Berilgan dorilar jadvalini siz yashayotgan joyingizga qarab moslashtirib olishingiz mumkin.

Jadvalda zamonaviy dorilar berilgan bo'lishiga qaramay, unga xavfsiz va foyda qiladigan xalq tabobati dorilari ham qo'shilishi mumkin. Dorilar miqdori qancha bo'lishi kerak?


Aptechkada saqlanishi kerak bo'lgan dorilar miqdori, tavsiya qilingan eng kam miqdordan oz bo'lmasligi kerak. Ko'p hollarda davoni boshlab olishning o'zi kifoya. Kasalni shifoxonaga olib borish yoki biror kimsani ko'proq dori uchun jo'natish kerak bo'lib qolishi mumkin.

Dorilar miqdori aptechkadan foydalanuvchi kishilar soni va dorilar ishlatilgan sayin o'rnini to'ldirib borish qanchalik qiyinligiga ham bog'liqdir. Oila va mahalla ahlining qurbiga ham bog'liqdir. Ba'zi dorilar ancha qimmatga tushishi mumkin, lekin zarur vaqtlarda ular qo'l ostida bo'lgani ma'qul.

UY APTECHKASINI (DORIQTISINI) SAQLASH

1. **EHTIYOT BO'LING.** **Barcha dorilarni bolalardan uzoqroqda saqlang.** Ko'p miqdorda ichilgan har qanday dori zaharli bo'lishi mumkin.
2. **Har bir dorida, uning nomi yozilgan qog'ozi va uni ishlatishga doir yo'l-yo'riqlar borligiga e'tibor bering.** Aptechkada ushbu kitobning nusxasini saqlang.
3. **Barcha dorilar va tibbiy jihozlarni** suvarak (tarakan) va kalamushlardan uzoqroqda **toza, quruq va sovuqroq joyda saqlang.** Asboblar, bint va paxtani og'zi berk sellofan xaltada saqlang.
4. **Kutilmagan hollarda kerak buladigan dorilarni doim qo'lingiz ostida saqlang.** Ishlatilgan dorining o'rnini to'ldirib qo'yishga harakat qiling.
5. **Har bir dorining ISHLATILISH (YAROQLIK) MUDDATIGA e'tibor bering.** Agar ishlatilish muddati o'tib ketgan yoki dori aynigan bo'lsa, uni yo'q qilib tashlang va yangisini olib keling.

**Dorilarni bolalar
ololmaydigan
joyda saqlang.**




UY APTECHKASI UCHUN DORI-DARMONLAR SOTIB OLISH

Ushbu kitobda berilgan dorilarning ko'p qismini kattaroq shahar dorixonalaridan sotib olinishi mumkin. Agar bir-necha oila yoki qishloq ahli bir bo'lib, o'zlariga kerakli dorilarni olmoqchi bo'lsalar sotuvchi dorilarni arzonroq narxda berishi ham mumkin. Dorilarni ulgurji sotib olish ham mumkin, bu yanada arzonroqqa tushadi.

Agar dorixonada sizga kerakli dori bo'lmasa, uning o'rnini bosadigan boshqasini oling, lekin uning siz izlagan doriga o'xshashligi va miqdoriga e'tibor bering.

Hammabop Tibbiyot Qo'llanmasi 2013

Dorilarni sotib olayotganda ularning narxlarini solishtiring. Ba'zi dorilar boshqasi bilan bir xil ekanligiga qaramay, ba'zi firmalarning dorilari ancha qimmatroq. Qimmat dorilar arzonlaridan yaxshiroq emas. Iloji bo'lsa, **firmalar tomonidan chiqarilgan mashhur dorilardan ko'ra oddiy dorilardan sotib oling**, chunki ular odatda arzonroq. Ba'zan siz kattaroq miqdorli dorini sotib olish orqali yutishingiz mumkin. Masalan: 500,000 ED. li penitsillin 250,000 ED. li penitsillindan bir oz qimmat bo'ladigani xolos, shuning uchun, kattaroq miqdorligini olib uni 2 ta miqdor sifatida ishlatishingiz mumkin.



UY APTECHKASI

Har bir xonadon aptechkasida quyidagi narsalar bo'lishi kerak. Ushbu dorilar qishloqlarda ko'p uchraydigan oddiy kasalliklarga davo qilish uchun yetarlidir. Aptechkangizga foydali xalq tabobati dorilarini ham qo'shib qo'ying

KERAKLI NARSALAR

Dori va ashyolarning ilshlatilishi hamda nomi	Narxi (o'zingiz yozing)	Tavsiya qilingan miqdori	Quyidagi betga qarang
YARALAR VA TERI MUAMMOLARIDA: paketlangan steril yopishqoq lentalar (leyko-plastir)		20	200, 408, 482
25,5; 51: 76,5 mm.li bintlar		2 tadan kichik	184
toza momiq paxta		xaltachada	82, 161, 179
leykoplastir, kengligi 25,5 mm.		2 ta	182, 184
sovun - agar iloji bo'lsa, maxsus dezinfeksiyalovchi sovun		1/4 litr	
70 % li spirt		4 ta kichik shisha	102, 162
Vodorod peroksid eritmasi		2-3ta	349, 431
Vazelin		1/2 litr	179, 200,442
oq sirka		100 g.	615, 372, 380, 527
oltingugurt		1 ta	380, 382, 388, 396
qaychi (zanglamagan)		1 ta	470
uchli pinset			180, 328
TANA HARORATINI O'LCHASH UCHUN: termometrlar (og'iz uchun) (peshov uchun)			101, 102
KERAKLI NARSALARNI TOZA SAQLASH UCHUN: polietilen(sellofan) paketlar			373, 535

DORILAR

Dorilarning ishlatilishi va nomi, jumladan firma tomonidan berilgan nom	O'zbekistondagi nomi (o'zingiz yozing)	Narxi (o'zingiz yozing)	Tavsiya qilingan miqdori	Betni qarang
<p>BAKTERRIAL INFEKSIYALARDA:</p> <p>1. Penitsillin, 250 mg. li tabletkalar (Fenoksimetilpenitsillin)</p>			40	629
<p>2. T-iseptol (sulfametokzol 400 mg. bilan trimetoprim 80 mg.)</p>			40	641
<p>3. Ampitsillin, 250 mg. li kapsulalari</p>			24	634
<p>OG'RIQ VA ISITMAGA QARSHI:</p> <p>5. Aspirin, 0,25; 0,5 mg. tabletkalar.</p>			50	649
<p>6. Paratsetamol, 500 mg. tabletkalar.</p>			50	651
<p>QO'TIR VA BITLARGA QARSHI:</p> <p>7. 2 %- 5% li Oltingugurt mazi va Oltingugurt salitsilat mazi yoki Benzil benzonat, 20% li krem</p>			1 shisha 20 gr.	672
<p>QICHISHISH VA QAYT QILISHLARDA:</p> <p>9. Prometazin (Pipolfen) 25 mg. tabletkalar.</p>			12	677
<p>ODDIY TERI INFEKSIYASI:</p> <p>10. Zelyonka (ko'k dori)</p>			4 shisha	670
<p>KO'Z INFEKSIYASIDA:</p> <p>11. Gentamitsin, ko'z tomchisi</p>			2 shisha	681

MAHALLA APTECHKASI

Mahalla aptechkasida, uy aptechkasi uchun mo'ljallagan dorilarning hammasi ko'proq miqdorda bo'lishi lozim, chunki bunda mahalla aholining soni va mahallaning markazdan qanchalik uzoqligi hisobga olinishi kerak. Quyida berilgan dorilar ham aptechkaga kiritilishi kerak; ularning ko'pi xavfli kasalliklarni davolash uchun mo'ljallangandir. Siz jadvalni yashayotgan joyingizdagi kasalliklarni hisobga olgan holda o'zgartirib, unga qo'shimcha qilishingiz mumkin.

QO'SHIMCHA NARSALAR

Ishlatilishi	Vositalar nomi	Narxi	Soni	Bet
UKOL QILISH UCHUN:	5ml. shprints 0,6 va 0,9 sm. mahsus uzunlikdagi ignalar		2 3-6 2-4	161
SIYISHGA QIYNALISH	kateter (rezinali yoki plastik)		2	446 447, 767,
VENALARNING SHISHISHI VA PAYLARNING TORTISHISHI:	elastik bog'lamlar, kengligi 51 mm. va 76,5 mm.		3-6	208
Quloq va boshqalarni ko'rish uchun	kichkina fonar		1	106, 471

QO'SHIMCHA DORILAR

Ishlatilishi	Dorilarning nomi	O'zbekis- tondagi nomi	Narxi	Soni	Bet
OG'IR INFEKSIYALARDA:					
	Penitsillin ukoli; Benzilpenitsillin- novokain 600,000 ED.			20-40	632
	2. Ampitsillin, ukoli 250, 500 mg. li flakonchalar			20-40	634
	3. Gentamitsin 40 mg. 1 ml. da; 80 mg. 2 ml. da			20-40	643
	4. Doksitsiklin kapsulalari yoki tabletkalari 100 mg.			40	639

Hammabop Tibbiyot Qo'llanmasi 2013

Ishlatilishi	Dorilarning nomi	O'zbekis- tondagi nomi	Narxi	Soni	Bet
	AMYOBIYAZ VA LYAMBЛИYAZDA:				
	4. Metronidazol, (Trixopol), 250 mg. tabletka			40-80 15-30	649
	TUTQANOQ, QOQSHOL VA QATTIQ YO'TAL MAHALLARIDA				
	5. Fenobarbital 100 mg. tabletka.			5-10	669
	OG'IR ALLERGIYA VA ASTMADA				
	6. Epinefrin (Adrenalin) ukoli, 1 mg. li ampula			5-10	682
	ASTMAGA				
	7. Salbutamol (Aerozol)			3	693
	TUG'RUQDAN KEYINGI KO'P QON KETISHGA				
	8. Metilergometrin (0,02 % li) 0,2 mg. li ukol, Oksitotsin 1ml.(5ED)			5 ta	730
	KAMQONLIK:				
	9. Temir (Temir sulfat) 200 mg. tabletka (dorilarda S (L)) vitamini va folat kislota bo'lsa yana yaxshi)			1000	702

BA'ZI JOYLARDA KERAK BO'LADIGAN DORILAR

Ishlatilishi	Dorilarning nomi	O'zbekistondagi nomi	Narxi	Soni	Bet
KO'ZLARNING QURISHI UCHRAYDIGAN JOYLARDA (KSEROFTALMIYA)					
	Vitamin A 5000 va 25000 M.E. (Retinol) kapsulalar			10-100	705
QOQSHOL UCHRASHI MUMKIN BO'LGAN JOYLARDA					
	Qoqshol antitoksini 50.000 ED. (iloji bo'lsa, kukunlashtirilgani)			2-4 shisha	652
ILON VA CHAYON CHAQISHI MUMKIN BO'LGAN JOYLARDA					
	Chaqishga qarshi maxsus zardoblar			2	653
BEZGAK UCHRASHI MUMKIN BO'LGAN JOYLARDA					
	Xloroxin fosfat (xingamin, delagil, malareks) 250 mg. tabletka.			50	656
VAZNI YETARLI BO'LMAGAN YANGI TUG'ILGAN CHAQALOQLARDAGI QON KETISHLARNI OLDINI OLISH YOKI DAVOLASH UCHUN					
	K vitamini 10 mg. ampula ukol			2	706

SURUNKALI KASALLIKLAR UCHUN DORILAR

MAHALLA APTECHKASIda sil, pes, yoki shistosomoz kabi surunkali kasalliklarga qarshi dorilarni saqlash talab qilinmaydi. Bemor ushbu kasalliklardan biriga chalinganligini aniqlash uchun tibbiyot markazida maxsus tekshiruvlar o'tkazilishi zarur, kerakli dorilar ham o'sha yerning o'zida topiladi. Qishloq aptechkasiga to'plangan dorilar, odamlarning yashash sharoiti va bunga ma'sul odamlarning tibbiy ma'lumotiga bog'liqdir.

EM DORILAR


Em dorilar ushbu jadvalga kirgizilmaganligining sababi, ular odatda Sog'liqni Saqlash Vazirligi tomonidan beriladi. Lekin bolalarning vaqtida emlanganligini qat'iy nazorat qilish kerak (273-bet). Shuning uchun, sovutgich (xolodilnik) bor joyda, mahalla aptechkaning bir qismini va ayniqsa, AKDS, shol va qizamiqqa qarshi em dirilarni unda saqlashi kerak.

QISHLOQ DORI SOTUVCHISIGA (FARMATSEVTIGA) MUROJAAT

Aziz do'stim !

Siz do'koningizda dorilar sotadigan bo'lsangiz, odamlar sizdan qaysi dorini sotib olish va uni qanday ishlatilish kerakligi haqida so'raydilar. Siz odamlar sog'lig'i va bilimiga katta ta'sir qilishingiz mumkin.

Ushbu kitob xaridoringizga faqat kerakli dorilarni sotib to'g'ri maslahat berishingizga yordam beradi.



O'zingiz bilganingizdek, ko'pincha nochor oilalar shundoq ham oz pullarini foyda qilmaydigan dorilarga sarflaydilar. Siz ularga o'z sog'liq ehtiyojlarini va pullarini oqilona sarflashlarini tushunishga yordam bera olasiz.

Masalan:

- Agar odamlar so'ragan dori sizda bo'lmasa, siz ularga dorining boshqa nomlanishini aytib berishingiz mumkin
- Agar odamlar yo'talga qarshi sirop, kamqonlikka qarshi B12 yoki jigar ekstrakti, og'riq yoki pay tortishishiga penitsillin yoki shamollaganga tetratsiklin olmoqchi bo'lsalar, ularga bu dorilarni keragi yo'qligini va ularning foydasidan zarari ko'proq ekanligini tushuntiring. Ular bilan kerakli dorilar haqida gaplashing.
- Agar biror kimsa quvvat beruvchi vitaminlardan olmoqchi bo'lsa, unga shu pulini tuxum, meva yoki sabzavotlarga sarflashi foydaliroq ekanligini tushuntiring.
- Agar odamlar tabletkalari bor dorilarning ukolini olmoqchi bo'lsa, ularga tabletkaxavfsizroq ekanini tushuntiring.
- Agar biror odam „shamollashga qarshi tabletkaxavfsizroq yoki aspirinning qimmat turidan olmoqchi bo'lsa, ularga oddiy aspirin (yoki Paratsetamol) ham ko'p suv bilan ichilganda yaxshi foyda berishini tushuntiring. Tabletkaxavfsizroq va ukollarning foydalari bir xil, lekin tabletkaxavfsizroqdir.

Hammabop Tibbiyot Qo'llanmasi 2013

Agar siz bu kitobdan kerakli ma'lumotni topib, xaridoringiz bilan birgalikda o'sha joyni o'qisangiz, sizga tushuntirish ancha osonroq bo'ladi.

Faqat foydali dorilarni soting. Dorixonangizni Uy va Mahalla Aptechkasida kerak bo'ladigan narsa va dorilar hamda oddiy, yashash joyingizda ko'p uchraydigan kasalliklarga qarshi arzonroq dorilar bilan ta'minlang.

Ishlatish davri tugagan, zararlangan yoki foydasi yo'q dorilarni hech qachon sotmang.

Dorixona odamlar uchun o'z sog'liqlarini ehtiyotlashni o'rganadigan joy bo'lib qolishi kerak. Agar siz orqali odamlar dorilarni oqilona ishlatish yo'llarini va miqdorlarini, shuningdek ularning xavflari va ehtiyot choralari-ni bilib olsalar, siz jamiyatingiz uchun buyuk xizmat qilgan bo'lasiz.

Omad sizga yor bo'lsin!

Hurmat bilan "Hammabop Tibbiyot Qo'llanmasining" ijodiy jamoasi.